

MOSHNI TAKRORIY EKINDA YETISHTIRISH XUSUSIYATLARI

Karimova Zarrina Abdurafikovna, talaba¹
To'rayev Ulug'bek O'tkirovich, q.x.f.f.d., assistent²,
Bobomirzayev Pirnazar Xursanovich, q.x.f.d., professor¹
 Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti²
 Buxoro Davlat texnika universiteti¹

Annatotsiya: Mazkur maqolada Buxoro viloyatining o'tloqi-allyuvial tuproqlari sharoitida takroriy ekin sifatida ekilgan mosh navlarining don hosildorligi va sifati yuqori bo'lgan navlarini tanlash uchun olib borilgan dala tajribalari natijalari atroflicha bayon qilib keltirilgan.

Kalit so'zlar: sug'oriladigan yerlar, mosh, Durdona, Turon, tanlash, navlar, dukkakli don, hosil, sifat, biologik azot

Аннотация: В данной статье подробно описаны результаты полевых опытов, проведенных по отбору сортов маш с высокой урожайностью и качеством зерна, высеваемых в качестве повторной культуры в условиях лугово-аллювиальных почв Бухарской области.

Ключевые слова: орашаемые земля, маш, Дурдона, Турон, селекция, сорта, бобовые культуры, урожайность, качество, биологический азот.

Annotation: This article describes in detail the results of field experiments conducted on the selection of mung bean varieties with high yield and grain quality, sown as a repeat crop in the conditions of meadow-alluvial soils of the Bukhara region.

Key words: Soils, Phaseolus aureus Roxb, Durdona, Turon, selection, varieties, legumes, productivity, quality, biological nitrogen.

Kirish. Respublikamiz iqlim sharoiti qishloq xo'jaligi ekinlarini yil bo'yi ekib, bir yilda 2–3 marta hosil olish imkonini beradi. Shu bois sug'oriladigan yerlarda kuzgi boshhoqli don ekinlari hosili yig'ishtirilib olingach, takroriy ekin sifatida mosh yetishtirish samaralidir. Respublikamizda har yili mosh takroriy ekin sifatida 18–20 ming hektardan ortiq maydonda yetishtiriladi.

Mosh oziqalik qiymati bilan bug'doy, loviya, no'xat, ko'k no'xat va javdar donlaridan 1,5–2 baravar, to'yimliliği bo'yicha esa 1,5 baravar ustun turadi. Tarkibidagi oqsilning hazmlanishi 86 foizga yetadi. Ekin vegetatsiya davrida tuproqda 50–100 kg/ga biologik azot va organik moddalar to'plab, yerning tabiiy unumdorligini oshiradi. Mosh-keng tarqalgan oziq-ovqat ekini. Mosh don ekinlariga nisbatan oqsilga boy, hazmlanishi oson, sifatli, arzon don hosili beradi va tuganak bakteriyalar yordamida

Mosh doni aminokislotalar va magniy, kalsiy, oltingugurt, natriy, temir, marganes, mis, bor, kobalt, nikel, yod, fosfor tuzlariga boy. Ayrim mamlakatlarda ham mosh donidan salat tayyorlanadi, Makaron va konditer sanoatida mosh unidan 30% qo'shilsa sifati tubdan yaxshilanadi. Yem-xashak sifatida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Mosh pichani tarkibida o'rtacha 15% oqsil bo'ladi. Mosh siderat sifatida ang'izda yetishtirilsa, undan 200-250 s/ga ko'k massa olish mumkin [7]. Ma'lumki, chorva xayvonlaridan yuqori va sifatli mahsulot olish uchun ularning ozuqa tarkibini o'zida oqsil, uglevod, yog', shuningdek vitaminlar, mineral tuzlar bilan boyigan pichan, siloslar bilan doimiy ta'minlash zarur. Moshning yashil massasi, pichani, poxoli va kepagi eng yaxshi ozuqa xisoblanadi. Makkajo'xori bilan moshni aralashtirib tayyorlangan silosi ozuqalik sifati yuqoriligi bilan farq qiladi. Mosh-eng yaxshi siderat ekin hisoblanadi, u ko'kat o'g'it sifatida ishlatilganda tuprokda 70 s/ga quruq modda to'planadi. Bu 100 kg azot demakdir. Mosh makkajo'xori, sabzavot va boshqa ekinlar ekiladigan yerlarda eng yaxshi siderat hisoblanadi. Mosh yerda azot to'plovchi sifatida don, texnika ekinlari va sabzavotlardan oldin ekiladigan eng yaxshi o'tmishdosh ekinlardan biri. Uni bahorda, yozda ham ekish mumkin. Mosh yer osti suvlari yuza joylashganligidan zararlanmaydi, tez o'sadi, yerni yaxshi soyalaydi va begona o'tlardan tozalaydi. Internetdan olingan ma'lumotlarga qaraganda, dunyoda ayni vaktida kechayotgan iqtisodiy vaziyat, dunyoda aholini jadal tarzda ko'payib borayotganligi, oziq-ovqat zahirasi yetishmasligi, dukkakli-don ekinlaridan olinadigan mahsulot bilan dunyoning asosiy aholisini ta'minlovchi Avstraliya mamlakatida ko'pdan buyon davom etayotgan qurg'oqchilik Xitoy, Hindiston kabi mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning oshib borishi kelgusida don ekinlarini ko'proq maydonlarga ekishni talab etadi. Shundan kelib chiqib, respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, uni barqaror holda ushlab turish uchun oziqovqat ekinlari maydonini o'zimizda ham kengaytirishni taqozo etadi [8]. Mosh issiqsevar dukkakli-don ekini bo'lganligi sababli O'zbekiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Gurjiston, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Xindiston va boshqa davlatlarda katta maydonlarda yetishtiriladi. Sug'oriladigan maydonlarning suv ta'minoti cheklangan sharoitlarida ham moshni kuzgi bug'doy ang'izida yetishtirib, yuqori sifatli oqsil va boshqa qimmatli oziqaga boy bo'lgan mosh doni yetishtirish mumkin. Ayni vaqtda suv tanqis bo'lgan hududlarda mosh yuqori harorat va qurg'oqchilikka bardoshliligi sababli ko'proq kuzgi boshqoli don ekinlari ang'izida takroriy ekin sifatida yetishtirilmoqda [6].

Sug'oriladigan maydonlarning suv ta'minoti cheklangan sharoitlarida ham moshni kuzgi bug'doydan so'ng yetishtirish mumkin. Suv tanqis bo'lgan hududlarda mosh qurg'oqchilikka bardoshliligi sababli takroriy ekin sifatida yetishtiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezident farmoni bilan O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 10 yillik 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyani

amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, kuchli sho‘rlangan yerlarning ulushini kamaytirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, don bozorida intervension mexanizmlar joriy etish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hosildorligi va raqobatbardoshligini istiqbolda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan eng muhim vazifalaridan sanaladi[1].

Material va uslublar. Qishloq xo‘jalik ekinlari xususan moshning Respublikamiz sug‘oriladigan yerlarida ekish uchun Davlat reyestriga kiritilgan moshning Baraka, Durдона, Zamin, Zilola, Kaxrabo, Marjon, Navruz, Osiyo, Radost, Turon navlari hisoblanadi. Dala tajribalari Buxoro viloyati Buxoro tumani hududida joylashgan “Muhammad Choriqiy” fermer xo‘jaligi sho‘rlangan o‘tloq-allyuvial tuproqlari sharoitida olib borildi. Tajribada o‘simlik parvarishi mazkur mintaqa uchun qabul qilingan agrotexnika asosida bajarildi. Tajribani joylashtirish, hisob va tahlillar, fenologik kuzatuv ishlari O‘zPITining «Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari» uslubiy qo‘llanmalaridan foydalanildi[3]. Hosildorlik bo‘yicha olingan malumotlarning dispersion tahlili B.A.Dospexov bo‘yicha aniqlandi [2].

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Buxoro viloyatining sho‘rlangan o‘tloq-allyuvial tuproqlari sharoitiga mos mosh navlarining takroriy ekin sifatida don hosildorligi va sifati yuqori bo‘lgan navlarini tanlash uchun dala tajribalarida moshning Davlat Reyestriga kiritilgan 10 ta (Baraka, Durдона, Zamin, Zilola, Kaxrabo, Marjon, Navruz, Osiyo, Radost, Turon) navlarini o‘rgandik. O‘rganilgan navlar orasida Durдона va Turon navlari don hosildorligi va sifati yuqori bo‘lgan navlaridan ekanligi aniqlandi.

Mosh urug‘i ekilganda tuproqni haddan tashqari namiqib ketishi unib chiqishiga salbiy ta‘sir etadi. Mosh urug‘i ekilganidan so‘ng og‘irligiga nisbatan 90–92% nam talab qilib, juda qisqa muddatlarda unib chiqdi.

Moshni kuzgi boshqoli, donli ekinlar, kartoshka, makkajo‘xori ekinlaridan bo‘shagan yerlarga ekish maqsadga muvofiq.

Mosh takroriy ekin sifatida ekilganda birinchi ekin hosili tez yig‘ishtirib olindi, somondan tozalandi va yengil sug‘orildi, yer yetilishi bilan 20-22 sm chuqurlikda haydaladi, baronalanadi keyin mola bostirildi. Yerda yirik kesaklar hosil bo‘lsa, og‘ir baronalar yoki halqali g‘altaklar bilan ishlandi. Qator oralari ishlanadigan ekinlardan keyin dala begona o‘tlardan toza, yaxshi ishlangan bo‘lsa, yerni haydamasdan 10-12 sm chuqurlikda kultivatsiya qilib yumshatish keyin baronalab, mola bostirilib yer ekishga tayyorlash lozim.

Mosh siderat ekin sifatida ham ekiladi. U ko‘kat o‘g‘it sifatida ishlatilganda g‘o‘za hosili 40-60 % ortadi. Mosh o‘suv davrida gektariga 50-100 kg azot to‘playdi. U ang‘izga ekilganda ham gektaridan 16-20 s urug‘ hosili beradi.

Mosh takroriy ekin sifatida iyun oyining oxiri-iyul oyining boshlarida keng qatorlab ekildi. Qator oralarini kultivatsiya qilindi, gullash va dukkaklarini hosil bo'lish davrida gektariga 800-1000m³ meyorida tuproq-iqlim va sizot suvlar satxini joylashish sharoitlariga qarab 1–3 marta sug'orildi.

Mosh o'simligini gullash va don tugish davrlarida suvga bo'lgan talabi yuqori bo'ldi. Begona o'tlardan tozalash maqsadida o'toq qilindi va qator oralari chopiq kilindi. Ekish oldidan gektariga sof holda 40–60 kg fosfor va 20–40 kg kaliyli o'g'itlar solindi. Shonalash va gullash davrlarida 30–40 kg azot, 20–30 kg fosfor va 10–20 kg kaliyli o'g'itlar bilan oziqlantirildi. Agar azotli o'g'itlar meyoridan oshib ketsa, o'simlik biologik azotni o'zlashtirmaydi.

Mosh dukkaklari bir tekis yetilmaydi. Moshning dukkaklari pishib yetilgan vaqtda tanasi, barglari va boshqa qismlari yashil holatda bo'ladi. Bu esa don hosilini to'g'ridan-to'g'ri kombayn bilan yig'ishtirib olish imkonini bermaydi. Shu sababli mosh yetishtiradigan xo'jaliklarda ko'pchilik holatlarda mosh hosilini yig'ishtirib olishda dukkaklarining 70–80 foizi yetilganda, ertalabki kezlarda qo'l kuchi bilan yig'ishtirib olinib, yoyib qo'yiladi va quritiladi, so'ngra yanchiladi.

Ikkinchi holat pishgan dukkaklar qorayadi, donlar o'z naviga xos tusga kiradi. Dukkaklarni 70% yetilganda o'rim-yig'im boshlanadi. Eng qulay o'rish usuli ikki fazada-oldin o'rib keyin qayta jixozlangan SK-5, Keys va boshqa rusumli kombaynlar bilan yanchib olinadi. O'rish pichan o'rish, yoki JBA-35 va boshqa rusumli o'rish mashinalarida o'tkazilib, dastalab ketiladi. O'simliklar 3-4 kun mobaynida qurigandan keyin yanchib olinadi. Yashil massasi, pichan uchun ekilganda o'simliklar yoppasiga gullaganda o'riladi. Yanchilgan tozalangan urug'lar namligi 15% ortiq bo'lmagan holda, qoplarda yoki to'kilgan holda, shamollatiladigan binolarda saqlanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Buxoro viloyatining sho'rlangan o'tloq-allyuvial tuproqlari sharoitiga mos mosh navlarining takroriy ekin sifatida don hosildorligi va sifati yuqori bo'lgan Durdona va Turon navlari o'zlarining umumiy foydali xo'jalik ko'rsatkichlari bilan ajralib turdi. Ushbu navlar hududning ekstremal tuproq-iqlim injiqliklariga, yozning issiq garemsil shamollariga, sho'rga) chidamliligini va yuqori hosil berishini namoyon qildi va moshning bu navlarini viloyatda kengroq maydonlarga ekishga tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi prezidenti farmoni, 23.10.2019 yildagi PF-5853-son.
2. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. – М: «Колос», 1985. - 317 с.
3. Nurmatov SH., Mirzajonov Q., Avliyoqulov A., Bezborodov G., Ahmedov J., Teshayev SH., Niyozaliyev B., Xoliqov B., Hasanova F., Mallabayev N., Tillabekov

- B., Ibragimov N., Abdualimov SH., Shamsiyev A. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. -Toshkent. 2007. – B. 146.
- 4.Xalilov N, Bobomirzayev P.X., Tursunov SH.N, Xalilova L.N, Qarshiyev A.E, To'rayev U.O'. Donli ekinlarning yetishtirish samaradorligini oshirish yo'llari (monografiya), MonografiY. Samarqand-2021, «Turon nashr» nashriyoti, B.371.
- 5.O'zbekiston respublikasi xududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reyestri. –Toshkent: 2023. -112 b.
6. Bo'riyev YA O'tmishdosh ekinlar va tuproq unumdorligi.//O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida suv va resurs tejoychi agrotexnologiyalar.Konferensiya materiallari to'plami.Toshkent. 2008. B.250-254.
7. Pilov A.P. Loviya va mosh. Toshkent. MonografiY.1978.B.61.
8. Isroilov.I A, Karimov A.A, Qurbonov A.A. Takroriy ekilgan mosh navlari hosildorligiga ekish muddati va meyorining ta'siri."Agrar sohani rivojlantirishda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi" mavzusidagi professor-o'qituvchil va yosh olimiarning I ilmiy-amaliy koferensiyasi materiallari to'plami/ Toshkent. 2017. B.263-268.